



INKLUZIV TA'LIM AHAMIYATI

Ollonazarova Shalola Akramjon qizi

Buxoro davlat universiteti 4-1 PPS-20 Guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada inkluziv ta'lim tizimining takomillashuvi, asoslari, vazifalari va inkluziv ta'lim tamoyillari haqida so'z boradi

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, inkluziv, rivojlanish, takomillashuv.*

Inkluziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bòlib, inclusive, inklusion-uygunlashish, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar ortasidagi tòsiqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga kòra nogiron bòlgan) òsmirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yònaltirilgan umumtalim tizimiga qòshishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inkluziv ta'lim turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qòllaydi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi.

Inkluziv ta'limga bòlan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi foydali jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

-inkluziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo òz oilasi, maxallasi va qarindosh-uruqlari, davrasida bòlishga imkon beradi.

-inkluziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bòlib xizmat qilishi mumkin.

-bolalarni turar joylaridan uzoqda bòlgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi, jamiyat hayotida ishtirok etish huquqiga tòsqinlik qiladi.

-uydan, oilasidan, ota-ona mehridan, uzoqda bòlgan bola diydasi qattiq bòlib òsadi, chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

- maxsus ehtiyojli bolarni umumtalim muasssalariga.

Ta'lim tizimini joriy etish, malum qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishini talab etadi. Inkluziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1. Inkluziv ta'limning etirof etilishi.


2. Inkluziv ta'limning barcha uchun ochiq bòlishi.

3. Boğlanishning mavjud bòlishi.

4. Markazlashtirilmagan bòlishi

5. Inkluziv ta'limda kompleks yondashuv.

6. Inkluziv ta'limda moslashuvchanlik.



Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida sog'lom ta'lim oluvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- barcha ta'lim oluvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiladigan, barcha odamlarga teng munosabatni ta'minlaydigan, ammo maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarning turli xil ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limning rivojlanish jarayoni, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar

- Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini yaratish;
- Erta tashxisni yo'lga quyish;
- Maxsus ehtiyojli bolalarga nisbaan jamiyatda ijobiy munosabat uyg'otish;
- Inklyuziv ta'lim borasida targ'ibot – tashviqot ishlarini kuchaytirish;

- Ota – onalar va xam jamiyatning ishtirokini kuchaytirish;
- O‘qitish uchun zarur vosita va asbob uskunalarning mavjudligi;
- Ta’lim muassasalarini alohida ehtiyojli bolalar imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda moslashtirish;
- Ta’lim berish usulublarining alohida ehtiyojli bolalarga moslashuvligi;
- Kadrlar tayyorlash jarayonida islohotlar amalga oshirish.
- Inklyuziv ta’limni joriy qilish bo‘yicha imkoniyati cheklangan xalqaro va milliy tajribalarga asoslangan holda multimediya kutubxonalarini tashkil etish va ularni ommaga targ‘ibot qilish.

Xulosa qilib aytganda, inkluziv ta’lim umum ta’lim jarayonlarini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bòlgan talimni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar talim olishiga oid qòshimcha moslamalarni tashkil qilib, nogiron bolalarning talim olishiga qulay sharoit yaratib beradi. Inkluziv ta’lim turli ehtiyojli bolalarning talim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantiradi.

Inkluziv ta’lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan talim turini amalga oshiradi. Agarda inkluziv talimni tadbiq etishda dars berish, o‘qitish bir muncha samarali va unumli bòlsa, unda nafaqat imkoniyati cheklangan balki barcha bolalar yutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uzbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘grisida»gi qonuni. T., 2020
2. Shomaxmutsova R., Tòlaganova D., Berdiyeva A.«Jismoniy rivojlanishida muammolari bòlgan bolalar bilan inkluziv va maxsus ta’lim tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar» T.: 2007.
3. Файзийева У. «Инклюзивное образование детей с сенсорными нарушениями в общеобразовательных школах». Ижтимоий ташаббусларни қўллаб-қувватлаш фонди, Т. 2009.
4. Shomaxmudova R., Berdiyeva A. . «Imkoniyati cheklangan bolalarni inkluziv ta’limda utsitish uslublari». Metodik tavsiya, «Ishonch markaz servis» 2008.
5. Shomaxmudova R.SH. Maxsus va inkluziv ta’lim xalkdro va milliy tajrib alar: maxsus va inkluziv ta’lim mutaxassislar uchun qollanma -T.: Chashma print, 2011. 208-6.
6. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
7. Абдуллаев К. Ф., Жураев Б. Т. Формирование правильной осанки ребенка в семье //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-3 (99). – С. 30-33.